

“Yosh kitobxon” tanloviga
qamrab olingan yoshlar soni:

10-14 yosh:
276 436

15-19 yosh:
199 715

20-30 yosh:
52 704

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

21 (16474)
2022-yil, 16-aprel
shanba

 /yoshlarovozi

 /yoshlarovozi

 /yoshlarovozi.uz

**Imkoniyat
5-bet**

“El-yurt umidi”
jamg'armasi

**Nigoh
6-bet**

Filming qulog'idek
darsliklar...

**Mutolaa
7-bet**

Yangi loyiha
g'olibi aniqlandi



YOSHLAR

– MAMLAKATNING OLTIN FONDI

15-aprel kuni Davlat boshqaruvi akademiyasida “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'ri” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

batafsil
2-3-betlarda



YOSHLAR

– MAMLAKATNING OLTIN FONDI



Mamlakatimizning ertasi, kuchi, qudrati – yoshlar! Ular maksimalist bo'lishadi, eng yaxshisini istaydi, davlatdan ham, jamiyatdan ham ko'p narsa talab qiladi. O'tgan vaqt davomida ularning bu talabi oqilona his etilib, yoshlarga oid davlat siyosati mazmun-mohiyati yangi o'zanga burildi. Sodda qilib aytganda, siyosatning yoshlarga, yoshlarning siyosatga munosabati yangilandi. Yosh avlodning barcha qatlamlari bilan samarali ishlash, ularning dard-u tashvishlarini tinglab, muammolarga eng to'g'ri yechimlarni topish davlatimizning eng asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yoshlar bilan ishlashda butunlay yangi va an'anaviy o'zini o'zi boshqarishning mahalla institutiga asoslangan yagona vertikal tizimni yaratish imkonini bermog'chi. Respublikamizdagi barcha mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, har bitta yosh bilan, u xoh ishli yoki ishsiz, xoh talaba yo o'quvchi, yigit yo qiz bo'lsin, individual ishlash mexanizmi yo'lga qo'yildi.

15-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida bo'lib o'tgan "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rnini" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rnini, sohada uchrayotgan muammolar va tizim samaradorligini yanada rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilish, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan asos solingan ushbu tizimning ilmiy-amaliy asoslarini mustahkamlash bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga bag'ishlandi.

Anjumanda mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi a'zolari, barcha mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari, olim va tadqiqotchilar ishtirok etdi. Konferensiya ishini joylardan turib 10 mingga yaqin yoshlar yetakchilari va faollar kuzatib bordi.

SPORTNI KENG TARG'IB ETISHGA FAOL HISSA QO'SHGAN YOSHLAR YETAKCHISINING MAHALLASIDA SPORTNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI HISOBIDAN "WORKOUT" VA BOSHQA SPORT MAYDONLARI QURIB BERILADI.

Anjumanda so'z olganlar ilgari yoshlarning masalalari, muammolarini o'rganish uchun ishlar maktabda, oliy ta'limda tashkil qilinganini, ammo yoshlar masalalariga oid asosiy muammolar mahallalarda bo'lib, bu e'tibordan chetda qolib kelganini ta'kidladi. Ko'pchilik jinoyat va huquqbuzarlik mahallada sodir etilar, ishsizlik, bekorlik va imkonsizlik keng quloch yoygan edi. Bu muammoni samarali hal etish uchun Prezidentimiz tashabbusi bilan 9348 ta mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, barcha yoshlar bilan ishlovchi yagona tizim yaratilgani, buning uchun zarur shart-sharoit, moddiy-texnik baza yo'lga qo'yilib, vazifalar aniq belgilab berilgani e'tirof etildi.

Endilikda yoshlar siyosati mahalladan boshlanadi, ularning muammolari ham mahallalarda o'z yechimini topadi. Jumladan, o'tgan qisqa vaqt ichida respublika bo'yicha "Yoshlar balans" shakllantirilib, qariyb 8 million yoshlarning moddiy-ma'naviy holati, oilaviy ahvoli, bandligi, salomatligi bilan bog'liq to'liq ma'lumotlar bazasi yaratildi. Bu barcha toifadagi yoshlar muammolarini hal etish uchun ilmiy asoslangan metod va uslublarda ish olib borish imkonini beradi.

O'z navbatida, bu millionlab yoshlar taqdiri, ertangi istiqboli mahalladagi yoshlar yetakchisining jonkuyarligi va fidoyiligiga ham bog'liqligini, ular zimmasidagi mas'uliyat zalvorini ko'rsatadi.

Ta'kidlanganidek, "Yoshlar balans"ni shak-



SHAVKATJON SODIQOV,

Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyati boshqarmasi bo'lim boshlig'i:

– Viloyatimizdagi barcha mahalla yetakchilari maxsus studiyalarda turib konferensiyada qatnashdi. Yoshlar bilan ishlash borasida zarur bilim va tavsiyalarga ega bo'ldi. Ular quyi tizimda duch kelishi mumkin bo'lgan savollarga mutaxassislardan javob oldi. Yetakchilarimiz eng faol hamkasblarining ish tajribalarini ham o'rganishdi.





SHERZOD OLIMOV,

Yoshlar ishlari agentligining mahallalarda yoshlar yetakchilari bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i:

– Qariyb uch oy davomida yoshlarning faoliyatiga uslubiy ko'mak berish maqsadida Respublika ishchi guruhi 14 ta hududda bo'ldi. O'rganishlar natijasida bugungi konferensiya tashkil etildi. Maqsadimiz – amaliy tajribalarni hududlarga ulashish, kamchiliklar yuzasidan soha mutaxassisleri, hamkor vazirliklar hamda olimlar ko'magida ilmiy asoslangan o'quv-uslubiy yo'naltirish berish. Shu bois konferensiya materiallari katta to'plam holda nashr qilindi. Olimlarimizning ilmiy asoslangan maqolalari kiritilgan to'plam yoshlar yetakchilarining faoliyatini samarali amalga oshirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

llantirish chog'ida 399 868 nafar ishsiz yoshlar aniqlangan. So'nggi uch oy davomida ularning 80 850 nafariga 15 159 gektar yer maydoni ajratilgan. Bundan tashqari, 1159 ta maktabda harbiy vatanparvarlik, yo'l harakati xavfsizligi, huquqbuzarlik profilaktikasi xonalari tashkil qilingan. 9 348 mahallada 23 000 dan ortiq yoshlardan iborat "Qalqon" guruhlari tashkil etilib, yoshlar o'rtasida jamoatchilik nazorati ta'minlanmoqda.

Konferensiyada yoshlarga oid davlat siyosatining qonunchilik amaliyoti yuzasidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri Nurdinjon Ismoilov, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish mavzusida bosh prokuror o'rinbosari Svetlana Ortiqova, yoshlar yetakchilarini davlat xizmatiga tayyorlash masalalarida Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori Adham Bekmurodov, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda sport musobaqalari hamda tanlovlarning o'zni haqida Sportni rivojlantirish vaziri Adham Ikramov va boshqalar so'zga chiqdi.

Shuningdek, tadbirda so'z olgan Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi direktorining birinchi o'rinbosari, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa (PhD) doktori Otabek Hasanov mahalladagi yoshlar yetakchisi lavozimiga saralab olingan kadrlar sifati, tarkibi, ularni rag'batlantirish mexanizmlariga to'xtaldi. Mahalladagi hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli lavozimlariga ishga olingan 28 044 nafar yosh kadrlar tufayli davlat boshqaruv idoralaridagi xodimlarning o'rtacha yoshi sezilarli pasayganiga urg'u berdi.

Yalpi majlisda hududlar tajribasi bilan tanishish imkoni yaratildi. Namangan viloyatida kitobxonlikka qaratilgan e'tiborni butun respublikaga o'rnak qilsa bo'ladi. "Yangi O'zbekiston – ziyo maskani" hamma viloyatlar havas qiladigan kutubxonaga aylangan. Bunday kutubxonalar Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida ham kamdan-kam uchraydi.

Fotolar: Nosirjon HAYDAROV / O'za



”

KONFERENSIYA BAHS-MUNOZARA, ERKIN FIKR ALMASHISH, ISHTIROKCHILARNING NAZARIY BILIM VA AMALIY TAJRIBALARI BILAN TANISHISH RUHIDA O'TDI.

Kun tartibidagi asosiy masalalardan biri, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishdan iborat bo'ldi. Bu orqali jamoat xavfsizligini ta'minlash mumkin. Bo'sh vaqt esa, albatta, sport bilan mazmunli o'tadi.

Konferensiya sho'balarga bo'lingan holda davom etib, yoshlarga oid davlat siyosatini "mahallabay" joriy etish, "Besh muhim tashabbus"ni amalga oshirish masalalari, "Yoshlar daftari" va "Yoshlar balans"i bilan ishlash, yosh liderlarni tayyorlash va milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olishda "mahallabay" ishlash tizimining o'zni kabi masalalar muhokama qilindi.

Konferensiya bahs-munozara, erkin fikr almashish, ishtirokchilarning nazariy bilim va amaliy tajribalari bilan tanishish ruhida o'tdi. Muhokama qilingan dolzarb masalalar yuzasidan rezolyutsiya ishlab chiqilib, taklif va tavsiyalar yoshlar bo'yicha mas'ul organlarga taqdim qilinadi.



NODIRA DAVRONOVA,

Yangiyer shahar "Shodiyona" mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Biz "halollik vaksinasi"dan qabul qilgan holda yoshlar bilan ishlashni quyidan boshladik. Mahallamizdagi 2 ta bog'chada "Ertakchi buvjon" loyihasini tashkil qildik. Har bir guruhdagi bolajonlarga 5 nafargacha nuroniy birlashtirildi. Bu yoshlarning keksalarga munosabatini shakllantiradi.

Konferensiya yangi-yangi tashabbuslarga yo'l ochdi. Ularni qanday amalga oshirish, hamkor tashkilotlar bilan qanday ishlash bo'yicha tavsiyalarga ega bo'ldim. Kelgusida bolalar o'yingohi bo'yicha "Yangiyer tajribasi"ni yaratmoqchiman.

ULBO'SIN MAMBETJAROVA,

Qo'ng'iro't tumanidagi "Mingjarg'on" mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Biz konferensiyaga Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumanidan yoshlarning kayfiyatini, shijoatini, yoshlar yetakchilari ularga qay darajada kerakligini bildirish uchun keldik. Men 20 yosh bo'lishimga qaramay, o'z oldimga juda katta maqsadlar qo'yganman. Mahallamdagi yoshlarning ishonchini oqlash, ularning takliflarini qo'llab-quvvatlash uchun butun kuch-g'ayratim bilan mehnat qilaman. Ularning qiziqishlaridan kelib chiqib o'z rejalarimni tuzaman. Hududimizdagi o'g'il-qizlar meni "Mahallamizning yuragi", deb e'tirof etganida vazifam nechog'lik mas'uliyatli ekanligini his qilganman.

Chekka qishloqlarda hunar o'rganish uchun imkon topa olmayotgan yoshlarimiz bor. Shu yoshlarni markazimiz qoshida ochilgan "Yosh hunarmandlar" klubiga qamrab olish bo'yicha taklifim Yoshlar ishlari agentligi rahbari tomonidan ijobiy qabul qilindi. "Yetakchining bir kuni" emas, "Mahallalardagi yoshning bir kuni", "Volontyorning bir kuni" videoroliklarini ishlab, "Mingjarg'on" mahallasi namunasi sifatida respublikaga olib chiqishni maqsad qilganmiz.

**Iqbol PARDAYEVA,
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbirlari**



“YOSHLAR DASTURI” IJROSI: VERTIKAL BOSHQARUV TIZIMI YARATILDI

Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi har bir mahallada yoshlar bilan ishlash tizimi samarali yo’lga qo’yildi. Joriy etilgan tizimdagi masalalarni muvofiqlashtirish bo’yicha Respublika komissiyasi tuzildi va komissiya ishchi guruhi tomonidan shu yil 3-fevral–31-mart kunlari manzilli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

 **9348** TA MAHALLA

 **10130** TA MAKTAB

 **721** TA PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASASI

 **159** TA OLIY TA'LIM MUASSASASI

**“YOSHLAR BALANSI”
TO’LIQ SHAKLLANTIRILDI**

**16–30 yoshdagi jami
7 million 407 ming 162 nafar yosh
bilan mahallalarda ishlash holati
baholandi va quyidagi
toifaga ajratildi.**

2364 5513 1471

mahalla mahalla mahalla
qizil sariq yashil

25,3 % 59,0 % 15,7 %



**Nodir
ABDUQODIROV,**
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi
axborot va media xizmati
rahbari

Eslatib o‘tamiz, yuqorida qayd etilgan vazifalar yoshlar manfaatidan kelib chiqib, mutasaddi vazirlik va idoralar, sektor rahbarlari, hokimliklar bilan hamkorlikda tizimli va sifatli amalga oshirilishi ta’minlanadi.

18 ta vazirlik va idoralar rahbar xodimlari ishtirokida mahallalarda 42 mingga yaqin yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi, maktab direktorlari, mahalla raisi, profilaktika inspektori va sektor rahbarlari bilan ochiq muloqotlar o‘tkazildi, ularning o‘zaro hamkorligi va yakdil harakati yo’lga qo’yildi. Natijada 9 348 ta mahalla, 10 130 ta maktab, 721 ta professional ta’lim va 159 ta oliy ta’lim muassasasida “Yoshlar balansi” to’liq shakllantirildi. Shu asosda 16–30 yoshdagi jami 7 million 407 ming 162 nafar yosh bilan mahallalarda ishlash holati baholandi va 2 364 ta mahalla **qizil** (25,3 foiz), 5 513 tasi (59,0 foiz) **sariq**, 1 471 tasi **yashil** (15,7 foiz) toifaga ajratildi.



Mahallalarda 7–30 yoshdagi 14 million yoshning bo’sh vaqtini ko’chama-ko’cha mazmunli tashkil etish, 630 ming nafar yoshlar bilan “Yoshlar daftari” tizimi orqali ishlash, yoshlar infratuzilmalarini tashkil etish bo’yicha mahallalar ko’rsatkichlarini yaxshilash uchun 3 ta asosiy yo’nalishda, jami 232 mingga banddan iborat “Yoshlar dasturi” ishlab chiqilib, ijrosi yo’lga qo’yildi.

O’tgan vaqt davomida 142 977 nafar ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh “Yoshlar daftari”ga kiritildi hamda 52 524 nafarini kasb-hunarga o’qitish, mehnat qurollari, urug’lik va ko’chat xarid qilishga subsidiya ajratish, kontrakt to’lovini to’lash uchun 101 milliard so’m yo’naltirildi.

Yoshlarni dehqonchilik qili-shi uchun yer maydonlari bilan ta’minlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shu yilning o’zida 61 mingdan ziyod yoshlarga yer maydonlari ajratildi.

“Yoshlarning bo’sh vaqti – yetakchining ish vaqti” tamoyili asosida har bir mahallada 6 ta yo’nalishda har kuni tadbir va loyihalar, tanlov hamda musobaqalar o’tkazilishi tizimli yo’lga qo’yildi. Ayni paytda 9 348 ta mahallada har kuni o’rtacha 300 ming nafar yosh ishtirokida 8,5 mingga yaqin tadbirlar o’tkazilmoqda. Bunday tadbirlarni muntazam va tizimli amalga oshirish uchun Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 4 milliard so’m, “Yoshlar daftari” jamg’armasi hisobidan 11,4 milliard

so’m, hokimliklar, sektor rahbarlari tomonidan 3,4 milliard so’m ajratildi.

Maktablardagi 7 885 ta sport zali, 10 130 ta kutubxona, 15 906 ta kompyuter xonalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, har kuni soat 16:00 dan – 23:00 ga qadar mahalla yoshlari ulardan foydalanishi uchun sharoit yaratildi.

Respublikadagi 279 ta sport maktabining 10,7 ming nafar murabbiyi, 32 ming nafar jismoniy tarbiya o’qituvchilari mahallalarga birlashtirilib, yetakchi bilan hamkorlik tizimi ishlab chiqildi. Imkoniyati cheklangan yoshlar o’rtasida paralimpiya sport turlarini ommalashtirishning “mahallabay” tizimi tatbiq etilib, 8 ta parasport turidan musobaqalar dasturi tayyorlandi.

“Bir nuroniyga 10 nafar yosh” loyihasi doirasida viloyatlarda 146 ming 106 nafar tarbiyasi og’ir, jinoyatchilikka moyil yosh 29 ming 565 nafar faxriy nuroniyga birlashtirildi. Mahallalarda 23 ming 170 nafar ko’ngillidan iborat **“Qalqon” yoshlar guruhlarini tashkil qilindi.**

Davlatimiz rahbarining topshirig’iga asosan, shu kunlarda yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida kitobxonlik, madaniyat va san’at, intellektual o’yinlar, axborot texnologiyalari hamda sport turlari bo’yicha “Besh tashabbus” olimpiadasi o’tkazilmoqda. Olimpiada doirasida respublika bo’yicha 8 millonga yaqin yoshlarni qamrab olish rejalashtirilmoqda.



18-APRELDAN SHAXMAT TURNIRI BOSHLANADI

Yoshlar ishlari agentligi Sportni rivojlantirish vazirligi hamda “Sky chess” maktabi bilan hamkorlikda “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida respublikamiz bo’ylab “Yoshlar ishlari agentligi kubogi” shaxmat turnirini e’lon qildi.

Turnir 18-apreldan mahallalarda boshlanadi. Unda yoshidan qat’iy nazar barcha professional va havaskor shaxmatchilar ishtirok etishi mumkin. Ishtirok etish uchun **@uzshaxmatbot** telegram botida ro’yxatdan o’tish lozim. Ro’yxatdan o’tish 17-aprelgacha davom etadi.

“ZAKOVAT STIPENDIYASI” TASDIQLANDI

2022–2023–o’quv yilidan boshlab “Zakovat” intellektual o’yini va boshqa intellektual o’yinlarning respublika bosqichida g’olib va sovrindor bo’lgan jamoa a’zolari uchun yil davomida har oy “Zakovat stipendiyasi” beriladi.

1-O’RINNI

olgan o’quvchi-yoshlar va talabalarga BHMning 5 baravari miqdorida (hozirda **1 350 000** so’m);

2-O’RINNI

olgan o’quvchi-yoshlar va talabalarga BHMning 4 baravari miqdorida (hozirda **1 080 000** so’m);

3-O’RINNI

olgan o’quvchi-yoshlar va talabalarga BHMning 3 baravari miqdorida (hozirda 810 000 so’m) mukofot belgilanadi.



Shaxriyor
MUHAMMADJANOV,
“El-yurt umidi” jamg’armasi
bo’lim boshlig’i

Mamlakatimizdagi shiddatli o’zgarishlar tashabbuskor va mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga, qarorlar qabul qilishga qodir professional kadrlarni talab qiladi. Bu rivojlangan davlatlarning yetakchi universitetlarida, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda yirik transmilliy korporatsiyalarda zamonaviy bilim va ilg’or xorijiy tajribani egallab, Vatanimiz ravnaqiga hissa qo’sha oladigan yoshlarga ehtiyojni kuchaytirmoqda. Talabni qondirish maqsadida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2018-yilda “El-yurt umidi” jamg’armasi tashkil etildi.

“EL-YURT UMIDI” JAMG’ARMASI

XORIJDAGI BEPUL TA’LIMNI KAFOLATLAYDIMI?

Jamg’arma oldiga bir qator muhim vazifalar qo’yilgan. Respublika hududlaridan iqtidorli yoshlar va davlat xizmatchilarining xorijdagi nufuzli o’quv, ilmiy va boshqa muassasalarda ta’lim olishini tashkil etish, zamonaviy bilimga ega va kreativ fikrlaydigan yangi avlod kadrlarini shakllantirish, ularni davlat xizmatiga jalb etishga ko’maklashish shular jumlasidandir.

2018-2021-yillarda “El-yurt umidi” jamg’armasining 1300 dan ziyod stipendiatlari 40 ga yaqin davlat (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Kanada, Italiya, Ispaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya kabilar)ning 280 dan ortiq universitet, ilmiy markaz va nufuzli kompaniyalarida tahsil oldi. Xorijdagi nufuzli universitet hamda ilmiy markazlarda zamonaviy bilim va ko’nikmalarni egallagan 1020 nafar stipendiatlar O’zbekiston iqtisodiyotining turli sohalarida samarali ilmiy-pedagogik va amaliy faoliyat olib bormoqda.

Jamg’arma ochiq stipendiya tanlovidan muvaffaqiyatli o’tgan yoshlarning quyidagi xarajatlarni qoplab beradi:

1

XORIJDA
BAKALAVRIAT,
MAGISTRATURA
YOKI DOKTORAN-
TURADA O’QISH
QIYMATI TO’LOVI
(KONTRAKT);

2

AVIACHIPTA
XARAJATLARI;

3


VIZA OLISH
VA TIBBIY
SUG’URTALASH;

4

TA’LIM OLISH
DAVRIDA
YASHASH,
OVQATLANISH
VA TRANSPORT
XARAJATLARI;

5

ZARUR O’QUV
VA ILMIY
ADABIYOTLARNI
XARID QILISH,
SHU JUMLADAN,
DARSLIKLAR
SOTIB OLISH.



OCHIQ VA SHAFFOF STIPENDIYA TANLOVLARI

Xorijda bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta’lim olish jamg’armaning asosiy ta’lim dasturi hisoblanadi. Stipendiya tanlovlarida yoshlar uchun qulaylik va teng imkoniyatlar yaratish maqsadida hujjatlar onlayn tartibda qabul qilinadi. Ta’lim dasturlari bo’yicha nomzodlar – O’zbekiston Respublikasining fuqarolari, ish va o’qish joyidan qat’i nazar, ochiq va teng asosda saralanadi.

Stipendiya tanlovlarida bakalavriat ta’lim dasturi bo’yicha – 25 yoshgacha, magistraturada – 20 yoshdan 45 yoshgacha, doktoranturada – 22 yoshdan 45 yoshgacha bo’lgan nomzodlar ishtirok etishi mumkin. Magistratura va doktorantura ta’lim dasturlari nomzodlaridan tanlangan mutaxassislik bo’yicha 2 yildan kam bo’lmagan mehnat staji talab etiladi. Shuningdek, hujjat topshirayotgan nomzodlar O’zbekiston Respublikasi Prezidentining

2021-yil 11-fevraldagi PF-6168-son farmoniga muvofiq TNE (The Times Nigher Education World University Rankings), QS (Quacquarelli Symonds World University Rankings), The U.S.News and World Report (Best Global University Rankings) va ARWU (Academic Ranking of World Universitiyes) kabi xalqaro miqyosda e’tirof etilgan akademik reytingning eng ilg’or 300 ta (yoki tanlab olingan fan bo’yicha yetakchi 100 ta) ta’lim va ilmiy muassasalardan biriga o’qishga qabul qilingan bo’lishi kerak.

Stipendiya tanlovlarida nomzodlarning xorijda ta’lim olishdan ko’zlagan maqsadi, olingan bilimlarini O’zbekistonda qo’llash imkoniyatlari, ma’naviy-axloqiy tafakkuri, sog’lom dunyoqarashi hamda milliy qadriyatlarni bilishi, tanlangan mutaxassisligi bo’yicha bilim va ko’nikmalari darajasi hisobga olinadi.

Nomzodlarni sifatli va shaffof saralash uchun tanlov komissiyalari tarkibiga davlat tashkilotlari, milliy va xalqaro ta’lim, ilmiy muassasalar hamda xalqaro tashkilotlardan malakali mutaxassislar jalb qilinadi. Barcha bosqichlar va baholash maxsus bayonlar asosida yuritiladi hamda videoyozuvlarga tushirib boriladi.

ISTIQBOLLI REJALAR

Vazirlik, idora va tashkilotlarning xorijda tayyorlangan kadrlarga, yoshlarning xorijda ta’lim olishga ehtiyoji yildan yilga oshib bormoqda.

2022-2026-yillar davomida jamg’arma dasturlari bo’yicha xorijga ta’lim olish uchun yuboriladigan yoshlar va mutaxassislar soni yildan yilga oshirilmoqda. 2021-yildagi 350 nafar o’rinni 2026-yilga kelib 700 na-

farga yetkazish maqsad qilingan.

Yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o’qitish hamda jamg’arma tanlovlari o’tkazishda 2021-yilda orttirilgan tajribadan kelib chiqib 2022-yildan boshlab yetakchi xorijiy davlatlarning ta’lim tizimi, qabul va o’quv jarayonlariga mos tarzda o’tkazish rejalashtirilmoqda.



IMKONIYAT



Xususiy tashkilotlarga ishga qabul qilingan yoshlarni kasbga qayta tayyorlash kurslarida o’qitish xarajatlari qoplab beriladi.

Hukumatning tegishli qarori bilan, “Yoshlar daftari”ga kirgan yoki bandligi ta’minlangani sabab undan chiqarilgan, xususiy tashkilotga ishga qabul qilinganiga 6 oydan oshmagan yosh xodimlarni kasbga qayta tayyorlash kurslarida o’qitish bilan bog’liq xarajatlarning 50 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdori-ning 4 baravarigacha bo’lgan qismi qoplab berilishi belgilangan.

Bugungi kunga qadar ushbu tizim orqali 125 nafar yoshlarning kasbga qayta tayyorlash kurslarida o’qitish xarajatlari kompensatsiya qilib berildi. Bu qariyb 146 million so’mni tashkil etmoqda.

O’z navbatida, bu imkoniyat ham yoshlar uchun, ham ish beruvchi uchun muhim ahamiyatga ega, nazarimizda. Sababi, yoshlar xususiy tashkilotga ishga kirgach, o’z ustida ishlab, kasbini mukammal darajada o’rganishi uchun davlat unga imkoniyat beryapti. Xususiy tashkilotga esa bu hech qanday xarajat tug’dirmaydi. Albatta, bundan davlat ham yutadi.

@alisher_sadullaev telegram kanalidan olindi.

YOSHLARGA REPETITORLIK VA XORIJIY TILLARDAN SERTIFIKAT OLISH XARAJATLARI QOPLAB BERILADI

1

Qanday toifadagi yoshlarga xorijiy tillar va umumta'lim fanlari bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'qish, milliy sertifikatlar olish uchun o'tkaziladigan imtihonlarni topshirish xarajatlari qoplab beriladi?

Bu yordamdan "Yoshlar daf-tari"ga kiritilgan yoshlar foydala-nishi mumkin.

2

Qancha miqdorda subsidiya ajratiladi?

Yoshlarning xorijiy tillar va umumta'lim fanlari bo'yicha no-davlat ta'lim tashkilotlarida o'qish xarajatlarining 50 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari-gacha bo'lgan qismi hamda milliy sertifikat topshirish uchun zarur xarajatlar to'liq qoplab beriladi.

Yosh chegarasi –
18–30 yosh.

3

Pul qanday ko'rinishda to'lab beriladi?

To'lov "Xalq banki" orqali qoplab beriladi. Agar muassasa nodavlat ta'lim tashkiloti bo'lsa, pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

5

Qanday hujjatlar talab etiladi?

Arizachi nodavlat ta'lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma va rasmiy to'lov chekini taqdim etishi lozim.

4

Imtiyozdan takroran foydala-nish mumkinmi?

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga yordam bir yilda bir marta beriladi. Shuningdek, bir nafar yoshga faqat bitta xorijiy til va bitta umumta'lim fani bo'yicha xarajatlar qoplab beriladi.


6

Murojaatlarni ko'rib chiqish muddati:

Ariza berilgan kundan bosh-lab 10 ish kunida kompensatsiya oluvchilarning elektron reestri shakllantirilib, "Xalq banki"ga moli-yalashtiriladi, keyingi 5 ish kunida bank orqali to'lov amalga oshiriladi.



FILNING QULOG'IDEK DARSLIKLAR...



Xabaringiz bor, maktablarda 1, 2-sinf Ona tili va O'qish fanlari o'rniga yangi birlashtirilgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani joriy etildi. Tabiat-shunoslik fani o'rniga "Tabiiy fanlar" (Scinse) nomi bilan yangi fan qo'yildi. Odobnoma o'rniga "Tarbiya", Mehnat ta'limi o'rniga "Texnologiya" fanlari kiritildi.

Bu darslik kitoblarning barchasi katta o'lchamda, og'ir, qo'pol ishlangan. Ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilari dars jadvalini yaxshi tushunmay, har kuni hamma darsligini maktabga olib keladi. Sumkaning og'irligini aytmaysizmi?! E'tiborli ota-onalar buning yechimini topishyapti, ba'zilari esa beparvo. Bu og'ir yuk bola salomatligi, o'sishi uchun ham ziyon.

Darsliklar bilan ham ishlash oson emas. Filning qulog'iday bo'lib partani egallab oladi. Daftarga esa joy yo'q, bo'lsa ham, yozish uchun no-qulay. O'quvchi yozganda qo'llar tirsakkacha parta ustida bo'lishi kerak. Ammo katta kitoblar hisobiga o'quvchilar qo'lining kaftlarigina daftar ustida harakat qiladi.

O'quvchilar hali doskaga to'g'ri yozish ko'nikmasiga ega bo'lmay turib, kitobni qanday qo'yish bilan ovora. Dars o'tish jarayonida kitob mitti qo'lchalarda shalpayib, arang turishini ko'rsam, bolalarga rahmim keladi. O'qituvchilar qulaylik yuzasidan ota-onalarga kitob uchun sotuvdagi 28–30 ming so'mlik tirgovich olib berishni maslahat berishmoqda. Lekin bu temir moslama shundoq ham og'ir sumkani yana og'irlashtiradi.

Qog'oz narxi ko'tarilib ketayotgan bir paytda bunday katta va beso'naqay kitoblar kerak emas, menimcha. Axir kitob hajmi kichraysa, o'qish sifati pasayib qolmaydi-ku!..

"Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida qoida va mashqlardan ko'ra rasmlar katta joy egallagan. O'qituvchilar darsga o'quvchilarni qiziq-tirish uchun turli xil ko'rgazmali qurollar tayyorlashadi. "Tabiiy fanlar" darsligida ham ma'lumot kam, rasm ko'p. Bir qarashda uni bog'cha bolalari uchun mo'ljallangan deb o'ylaysiz.

O'qituvchi sifatida shular haqida o'ylar ekanman, ekspertlar ham bolalar bilan ishlagan, bola psixologiyasini yaxshi biladigan mutaxassislardan maslahat olishsa, yomon bo'lmas edi.

Tarixga bir nazar tashlang, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabi bobolarimiz kompyutersiz, internetsiz ham mashhurlik cho'qqisi-

ni egallagan. Bunday bilimlarning sababchisi esa faqatgina kitobdir. Ular hech qanday hashamat-u jimjimador rasmlarsiz kitoblardan bilim olishgan.

Oson erishilgan narsa beqadr bo'ladi. Buni tarbiya jarayonida ham bolalar ongiga singdiramiz. Bola ko'proq izlansa, o'qisa, o'qiganlari ustida mulohaza yuritsa, mustahkam-roq bilimga ega bo'lar edi. Kompyuter, televizor, telefondagi multfilm va o'yinlar, multimedia ilovalari bola uchun oson topilgan xo'rakdek gap. Bolani yanada chuqurroq fikr yuritishga o'rgatish zarur. O'z xulosalarini tinglovchiga to'g'ri yetkazib berish uchun nutqi ravon, savodxonlik darajasi yuqori bo'lishi kerak. Buning uchun bolalar tayyor narsani ko'rib emas, balki keng qamrovli kitobdan o'qib o'rganishi maqsadga muvofiqdir.

Tayyor va topilishi oson bo'lgan ma'lumotlar bazasi ko'paygani sayin kitobxonlik darajasi ham pasayib bormoqda. Natijada diktant, xat yozish, umumiy hujjat ishlarida ham oddiy so'zlarda imloviy xatolar qilish ko'p ko'zga tashlanmoqda. Bu masalani jiddiy o'ylab ko'rish siz-u biz kabi mas'ullarning ishidir.

Nodira ISAYEVA,
Xovos tumanidagi 15-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



YANGI LOYIHA G'OLIBI ANIQLANDI!



Uzoq kutilgan g'oliblar ro'yxatini e'lon qilishdan avval siz o'qib chiqib, savollarga javob yo'llagan asar – Shukur Xolmirzayevning “O'n sakkizga kirmagan kim bor” qissasidan ilhom olib, mushtariyimiz tomonidan yozilgan she'rni e'tiboringizga havola etamiz. “Shukur Xolmirzayevning asaridan ta'sirlangan holda yozdim, Sizlarga ham ulashgim keldi”, – deydi muallif.



Gazetamizda e'lon qilingan yangi loyiha – “Birga o'qiymizmi?” qisqa vaqt ichida kitobxonlar va hatto kitobdan ko'ra ijtimoiy tarmoqlarni afzal ko'radigan yoshlarni ham qiziqtirib ulgurdi.

Bu quvonarli hol, albatta! Agar siz loyihamiz sabab qaysidir kitobni mutolaa qilib, yaxshi taassurotlar olgan bo'lsangiz, demak, biz maqsadimizga yetdik. Oldinda sizni yanada qiziqarli kitoblarning qizg'in mutolaasi kutib turibdi!

O'KINCH

Zang tomon otildi otashin ko'ngil,
Zimiston oralab, moviy osmonim.
Sokin soy bo'yida kuyladi bulbul,
Dard ortib yelkamga,
mening zabonim.

Taqdirni ayblab o'taymi endi,
Axir taqdir menga bo'lmadi
dushman.
Yoshlikni ayblab o'taymi endi,
Axir yoshlik menga berdi-ku imkon...

Ibrohim SUVONOV,
Navoiy davlat pedagogika
instituti 3-bosqich talabasi.

Demak, g'olibni e'lon qilamiz:
Nurmurodov Murodjon Mansur o'g'li, Buxoro davlat tibbiyot instituti 4-bosqich talabasi. G'olibni tahririyat jamoasi nomidan qutlaymiz!

Shuningdek, faol ishtiroki uchun Go'zal Sirojova, Komilaxon Saburova, Komila Zaripova, Ibrohim Suvonov va Elbek Sag'dulla'yevga minnatdorchilik bildiramiz!

Kitobxon mushtariylarimizdan loyihamizning navbatdagi sonlarida yanada faol bo'lishlarini, savollarga tezkor va, eng asosiysi, imkon qadar to'liq javob berishlarini so'rab qolamiz. G'olibimiz Murodjonning 3-savolga batafsil javob yo'llagani uni g'alaba sari yetkazdi, desak to'g'ri bo'ladi. Biz bilan birga bo'ling va kuzatib boring!

Ziyoda RAHIMBOYEVA.

XIX ASR LIRIK SHOIRI



Ogahiy XIX asr lirik shoiri sifatida mumtoz adabiyotning deyarli barcha janrlarida qalam tebratib, o'z muxlislari mehrini qozondi. Shoirning g'azal, ruboiy, muxammas, mustazod, musaddas, musamman, masnaviy, chiston, qit'a, tuyuq, tarjiband, ta'rix she'r va qasida singari janrdagi asarlari sevib mutolaa qilinadi. Ogahiy g'azallarining salmoqli qismi Allohga bo'lgan ishqni ulug'lash, izhor qilishga qaratiladi:

*Ey, yuzing shavqi tanimdin oldi jon, bir bo'sa ber,
Vay, labing zavqi ichimni qildi qon, bir bo'sa ber.*

Ogahiy ruboiylari teran, keng qamrovli, maishiy mavzularda yozilgan bo'lib, o'zi yashagan davrning chirkini kirdikorlarini hamda ziyoli insonlarning kamsitilishini mahorat bilan yoritadi. Qit'alari, asosan, satirik usulda yozilgan bo'lib, ularda laganbardorlik, ikkiyuzlamachilik, poraxo'rlik, bir so'z bilan aytganda, o'sha davr amaldorlarining jirkanch illatlari qoralangan. Ogahiy o'zidan oldin yashab o'tgan Navoiy va Uvaysiyning chistonlaridan andoza olgan holda ijtimoiy, axloqiy-ta'limiy, falsafiy chistonlar yaratgan.

Biz Ogahiy ijodini tahlil qilar ekanmiz, u yaratgan asarlar serqirra va yuksak tafakkur bilan yozilganligiga yana bir bora guvoh bo'lamiz. Hozirgi kunda ham Ogahiy ijodini o'rganishga qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Ogahiy xotirasiga ehtirom sifatida poytaxtimizning “Adiblar xiyoboni” maskaniwda shoirning muhtasham haykali qad rostladi. Uning serqirra ijod namunalari kelasi avlod uchun ham katta maktab sifatida xizmat qiladi.

Roziyaxon SHUKRXO'JAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

Abduvohid HAYIT

MING YIL OLDIN AYTILGAN BUGUNNING GAPI



Maqollar, nazarimda, hozirgi yoshlar nutqini tark etayotganday. Go'yoki ular eskilik sarqitlari, bugungi avlod uchun munosib emas. Ming yillar osha bizgacha yetib kelgan maqollar aslida chinakam xalq donishmandligi, har qanday badiiy asar bilan bellasha oladigan xalq og'zaki ijodi namunalaridir. Ajdodlarimiz, xoh xos, xoh avom bo'lsin, nutqini, albatta, maqollar bilan bezagan, maqollar ularga milliy an'analar, qadriyatlarga amal qilib, to'g'ri yashashga ko'mak bergan.

Mahmud Koshg'ariy bobomiz ham “Devon-u lug'otit-turk” (“*Turk til-lari so'zligi*”) asarida yuzlab maqollar keltiradi va, albatta, ularning ma'no-

lari, qachon, qanday holatda ishlatilishi haqida tushuntirish beradi. Buni qarangi, ular hozir ham ahamiyatini yo'qotmagan, dolzarb. Mana shunday maqollardan biri:

“Tamu qapug'in achar tavar”.

Bu yerda: “tamu” – tamug', ya'ni do'zax, “qapug'” – eshik, “achar” – ochar, “tavar” – tavar, ya'ni buyum, ammo ushbu maqolda “tavar” so'zi Mahmud Koshg'ariy izohiga ko'ra, “pora” ma'nosida ishlatilgan. Maqolning mazmuni: **“PORA DO'ZAX ESHIGINI OCHADI”.**

Demak, ming yil, ikki ming yil oldingi ajdodlarimiz ham pora berish nafaqat jamiyat uchun, balki insonning o'zi, oxirati uchun ham salbiy hodisa ekanligini bilganlar.


150 TALABA ISHLI BO'LDI

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida o'tkazilgan bo'sh ish o'zni va amaliyot yarmarkasida 50 ga yaqin tashkilot 1 650 ta bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdi. Yarmarkada 150 dan ziyod bitiruvchi talabalar bandligi ta'minlandi. 1, 2, 3-kurs talabalaridan ham 181 nafari bugungi kunda ish joyiga ega.

EZGU AMAL



– bu tashabbuskorlar tomonidan onkologik-gematologik bemor bolalarga yordam berish uchun tashkil etilgan birinchi fond.



FONDNING SHIORI:

“

**Saraton hukm emas!
Hech bir bola bu dunyoni hayotining ilk davrida tark etmasligi kerak!”**

Maqsadi -

onkologik kasalliklarga chalingan bolalarga va hayotda qiyin vaziyatga tushib qolgan insonlarga yordam ko'rsatish.

“EZGU AMAL” dasturlari:

- “Maqsadli yordam”
- “Tez yordam”
- “Imkon ber”
- “Mehr yaqin”
- “Ishon va kurash”
- “Qo'ldan qo'lga”

Uch yil mobaynida yordam olganlar:

- qabul qilingan arizalar (buyurtmalar) - **10 000** dan ortiq;
- maqsadli yordam - **500** dan ortiq;
- loyihalar - **50** dan ortiq;
- loyihalar doirasida yordam olgan muhtojlar - **5 000** dan ortiq;
- hammasi bo'lib yordam olganlar - **5 600** dan ortiq.

**YOSHLAR
OVOZI**

Bosh muharrir:

**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Iqbol PARDAYEVA

Musahhihlar:
**Rashid Xo'jamov
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-355, Adadi - 10573. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

